

ЎТМИШГА НАЗАР

1 МАХСУС СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР 1

LOOK TO THE PAST
SPECIAL ISSUE 1



ТОШКЕНТ-2023

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Рахбар Хамидовна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори,
профессор, академик,
Ўзбекистон Миллий университети

Бобожонова Дилором Бобожонова
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари
университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Кебадзе Мадонна
тарих фанлари доктори,
Телави давлат университети

Аширов Адхам Азимбаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
ЎзР ФА Тарих институти

Агзамова Гулчеҳра Азизовна
тарих фанлари доктори, профессор,
ЎзР ФА Тарих институти

Бурдиашвили Майя
тарих фанлари доктори,
Телави давлат университети

Кожакеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори, доцент,
Хотин-қизлар давлат педагогика
университети

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори,
Тошкент кимё - технология институти

Дорошенко Татьяна Ивановна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Бабаджанова Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Ширванова Тарана Амирага кызы
тарих фанлари номзоди, доцент,
Азербайджон давлат
иқтисодиёт университети

Гофоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори, профессор
Самарқанд давлат университети

Эргашева Юлдуз Алимовна
Тарих фанлари доктори, профессор,
Қариш муҳандислик-иқтисодиёт
институти

Теймураз Ахалмосулишвили
тарих фанлари номзоди, профессор,
Телави давлат университети

Халикова Рахбар Эргашевна
тарих фанлари доктори, профессор,
Тошкент давлат техника университети

Ишанходжаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Эшов Боходир Жўраевич
тарих фанлари доктори, профессор
Қариш давлат университети

Махкамova Надира Рахмановна
тарих фанлари доктори, профессор,
Тошкент ахборот технологиялари
университети

Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна
тарих фанлари доктори, доцент,
Нукус давлат педагогика институти

Мустафаева Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари доктори
Ўзбекистон Фанлар академияси

Ерметов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Джоробекова Айнуэр Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Қозоғистон дипломатия академияси

Рахмонкулова Зумрад Бойхуразовна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Расулов Абдуллажон Нуриддинович
тарих фанлари доктори, профессор
Наманган давлат университети

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори, профессор
Санкт-Петербург Тарих институти

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Ауанасова Алима Мусировна
тарих фанлари доктори, профессор,
Қозоғистон давлат тарихи институти

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори, профессор,
Қозоғистон Миллий университети

Хайдаров Муродилла Махмудалиевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Алнева Лале
тарих фанлари доктори,
Озарбайжон давлат университети

Санпова Камола Давляталиевна
тарих фанлари доктори, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исмаилова Алмаз
тарих фанлари доктори,
Догистон мустақил университети


Иноятова Диларам Маниглиевна
Тарих фанлари доктори (DSc)
Ўзбекистон Миллий университети

Одилов Абдор Анварович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Толибоева Нодира Одилжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон
жаҳон тиллари университети

1. Валишер Элмуродович Абиров ЎЗБЕК ХАЛҚИНИНГ ШАКЛЛАНИШИ: ИЛМЙЙ-НАЗАРИЙ ЁНДАШУВЛАР ВА МУНОЗАРА.....	5
2. Жалолиддин Тухташевич Аннаев ЎРТА АСРЛАР ДАВРИ ТАРМИТА-ТЕРМИЗДА БУДДАВИЙЛИК.....	13
3. Феруза Парходовна Атамуратова ҚАДИМГИ ВА ЎРТА АСРЛАР ДАВРИДА ТАРМИТА-ТЕРМИЗ.....	21
4. Мунаввар Абдурашид қизи Атамирзаева МУСТАҚИЛЛИК ЙИЛЛАРИДА БУХОРО АМИРЛИГИДА ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ МАСАЛАЛАРИНИНГ ТАДҚИҚ ЭТИЛИШИ.....	28
5. Рашидахон Муқимовна Аҳмедова ЎЗБЕКИСТОН ШИФОБАХШ ЖОЙЛАРНИ ТАДҚИҚ ЭТИШДА ИЛМЙЙ ЭКСПЕДИЦИЯЛАР ВА ИЛМЙЙ-ТАДҚИҚОТ ИШЛАРИНИНГ ФАОЛИЯТИ ТАРИХИ....	35
6. Рашидахон Муқимовна Аҳмедова ТУРКИСТОН ТАБИЙ РЕСУРСЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ ИЛМЙЙ ЙЎЛГА ҚЎЙИЛИШИ.....	40
7. Дилафруз Аҳмедова Хусан қизи МАКТУБЛАР МАНБА СИФАТИДА.....	46
8. Oхunjon Axmat o'g'li Boboqulov MUSTAQIL KONGO DAVLATINING SSSR BILAN DIPLOMATIK ALOQALARI (davriy matbuot gazetalari tahlili asosida).....	53
9. Феруза Хаятовна Бобожонова БУХОРОДА МАКТАБ ТАЪЛИМ ТИЗИМИ ТАРИХИ (XIX АСР ОХИРИ-XX АСРНИНГ БИРИНЧИ ЯРМИ).....	58
10. Omon Olimjonovich Gadayev MUSTAQILLIK YILLARIDA SAMARQAND VILOYATINING DEMOGRAFIK TARIXI.....	65
11. Дилорам Зияева МАРКАЗИЙ ОСИЁДА ЎРТА АСРЛАРДА ЮЗ БЕРГАН УЙЎНИШ. ВАТАНДОШЛАРИМИЗНИНГ ЖАҲОН ТАМАДДУНИГА ҚЎШГАН ҚИССАСИ.....	71
12. Farxod Sobirovich Ziyayev TURKISTONDA MUSTABID SOVET TUZUMIGA QARSHI QUROLI HARAКAT.....	77
13. Ubaydulla Mamat o'g'li Ismoilov SUYURLITEPA YODGORLIGI O'RNIDAGI SHAHARNING TARIXIY NOMI XUSUSIDA MULOHAZALAR.....	84

14. Baxtiyor Safarovich Nazirov JADID VAKILLARINING AHOLINI SOG‘LOMLASHTIRISH BORASIDAGI QARASHLARI.....	109
15. Рустам Абдуваид ўгли Неъматов ТУРК ХОҚОНЛИГИ ДАВРИДА ХОРАЗМ ВОҲАСИ ИЖТИМОИЙ-СИЁСИЙ ТАРИХИНИНГ ЎРГАНИЛИШИ.....	114
16. Дилорам Сангирова ЎРТА АСР ДАВЛАТЧИЛИК РАМЗЛАРИ СЎЗ ВА ТАСВИРДА.....	120
17. Lyudmila Mixaylovna Sokolova ANDIJON, NAMANGAN, FARG‘ONA VILOYATLARIDAGI HUNARMANDLAR USTOZIGA BAG‘ISHLANISH MAROSIMINING IBTIDOSI HAQIDA.....	130
18. Фазилат Нормуродовна Тургунова СИРДАРЁ ВИЛОЯТИ МУСИҚАЛИ ДРАМА ТЕАТРИ ФАОЛИЯТИНИНГ РИВОЖЛАНИШИ.....	142
19. Баходир Босимович Тўйчибоев ҚОЯТОШ ЁДГОРЛИКЛАРНИ САҚЛАШ ВА ФОЙДАЛАНИШ MASALALARI ХУСУСИДА.....	147
20. Раъно Нортўхтаевна Тўхтаева ЎЗБЕКИСТОНДА ИККИНЧИ ЖАҲОН УРУШИДАН Кейинги ИҚТИСОДИЙ ҲАЁТ...154	154
21. Dilshod Inomjon o‘g‘li To‘xtasinov NORIN VA QORADARYO ORALIG‘I HUDUDLARINING MANBASHUNOSLIK TAHLILI VA UCHTERA-2 YODGORLIGINING ARXEOLOGIK JIHATDAN O‘RGANILISHI.....	159
22. Mansur Xayrullayevich Fayzullayev XIX АСР ОХИРИ – XX АСР БОШЛАРИДА ТУРКИСТОННИНГ ИЖТИМОИЙ- ИҚТИСОДИЙ ҲАЁТИГА ДОИР MASALALARНИ ЎРГАНИЛИШИ ТАРИХШУНОСЛИГИ.....	170
23. Rashid Mamatkulovich Xolmurodov TARIXIY O‘LKASHUNOSLIK FANINI O‘RGANISHDA SHAROF RASHIDOV MUZEYI MANBALARIDAN FOYDALANISH.....	177
24. Tuyg‘un Rajabovich Ernazarov TURKISTON GENERAL GUBERNATORLIGIDA BOJXONA XIZMATINING TASHKIL ETILISHI VA UNING FAOLIYATIDAN LAVHALAR (Rossiya imperiyasi va Xitoy aloqalari misolida).....	182
25. Бахтиёр Эргашевич Юлдашев, Светлана Владимировна Темирова ЗАРДУШТИЙЛИКНИНГ МУҚАДДАС КИТОБИ “АВЕСТО”ДА СИЁСИЙ-ҲУҚУҚИЙ ҚАРАШЛАР.....	187
26. Алишер Яркулов АРХЕОЛОГИЯ МЕРОСИ ОБЪЕКТЛАРИНИ МУЗЕЙЛАШТИРИШ ТУРЛАРИ ВА УСУЛЛАРИ ХУСУСИДА.....	195
27. Abdurahmonova Nodiraxon Xusnutdinovna HUQUQIY MADANIYAT VA DEMOKRATIYA: IJTIMOIIY FALSAFIY YONDASHUVLAR VA KONSEPSIYALAR.....	202



Rashid Mamatkulovich Xolmurodov,
Jizzax davlat pedagogika universiteti,
O'zbekiston tarixi kafedrasida dotsenti

TARIXIY O'LKASHUNOSLIK FANINI O'RGANISHDA SHAROF RASHIDOV MUZEYI MANBALARIDAN FOYDALANISH

For citation: Rashid M.Holmurodov, USE OF THE RESOURCES OF THE SHARAF RASHIDOV MUSEUM IN THE STUDY OF THE SCIENCE OF HISTORICAL LOCAL STUDIES. Look to the past. 2023, Special issue 1, pp.177-181

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.8072233>

ANNOTATSIYA

Maqolada tarixiy o'lkashunoslik fanini o'rganishda Sharof Rashidov muzeyi manbalari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Muzey manbalari Sh.Rashidovning xalqimiz oldidagi shijoatli mehnati, zukko rahbarlik qobiliyati, serunum ijodiy mehnati bilan yaqindan tanishish imkoniyatini beradi. Sh.Rashidov o'zining ko'p yillik rahbarlik faoliyati davomida respublika iqtisodiyoti, ta'lim-tarbiyasi va madaniyati rivojlantirishiga katta hissa qo'shdi. Uning jo'shqin mehnat faoliyati xalqimizga, ayniqsa yoshlarga ibrat namunasini ko'rsatib berdi. Shuning uchun Sh.Rashidovning siymosi xalqimiz qalbida abadiy yashashga dahldor bo'lib qoldi.

Kalit so'zlar: tarixiy o'lkashunoslik, Sharof Rashidov, muzey, manba, rahbarlik qobiliyati, ijodiy mehnat, respublika iqtisodiyoti, ta'lim-tarbiya, madaniyat, xalq, yoshlar, ibrat namunasi.

Рашид Маматкулович Холмуродов,
Джизакский государственный педагогический университет,
доцент кафедры истории Узбекистана

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ РЕСУРСОВ МУЗЕЯ ШАРАФА РАШИДОВА В ИЗУЧЕНИИ ИСТОРИЧЕСКОЙ КРАЕВЕДЧЕСКОЙ НАУКИ

АННОТАЦИЯ

В статье представлены сведения об истоках музея Шарафа Рашидова в историко-краеведческом изучении. Ресурсы музея дают возможность познакомиться с Ш. Ш.Рашидов за годы своего многолетнего руководства внес большой вклад в развитие экономики, образования и культуры республики. Его увлеченная работа послужила примером для нашего народа, особенно для молодежи. Именно поэтому образ Ш.Рашидова смог навсегда остаться в сердцах нашего народа.

Ключевые слова: историческое краеведение, Шароф Рашидов, музей, источник, лидерские качества, творчество, экономика республики, образование, культура, народ, молодежь, образец для подражания.

Rashid M. Holmurodov,
Jizzakh State Pedagogical University,
Associate Professor of the Department of History of Uzbekistan

USE OF THE RESOURCES OF THE SHARAF RASHIDOV MUSEUM IN THE STUDY OF THE SCIENCE OF HISTORICAL LOCAL STUDIES

ABSTRACT

The article presents information about the origins of the Sharaf Rashidov Museum in the study of local history. The resources of the museum provide an opportunity to get acquainted with Sh. Sh. Rashidov, over the years of his many years of leadership, made a great contribution to the development of the economy, education and culture of the republic. His passionate work served as an example for our people, especially for young people. That is why the image of Sh. Rashidov could forever remain in the hearts of our people.

Index Terms: local history, Sharof Rashidov, museum, source, leadership qualities, creativity, economy of the republic, education, culture, people, youth, role model.

1. Dolzarbligi:

Sharof Rashidov muzeyi bugungi kunda ma'naviyat va ma'rifat maskani sifatida xalqimiz, ayniqsa, yosh avlodimizni Sharof Rashidov hayoti va faoliyati bilan yaqindan tanishtirishga xizmat qilmoqda. Muzeydagi eksponatlar Sharof Rashidovning respublika rahbari sifatida zimmasidagi ulkan vazifalarga qaramasdan, o'zi butun borlig'i bilan sevgan adabiyotga hamisha sodiq qolganligini ko'rsatadi. Ayniqsa, u o'zining betakror iste'dodi bilan ezgu qadriyatlarni tarannum etgan roman va qissalar, she'r va dostonlar, publitsistik maqolalar yaratgani alohida tahsinga loyiqdir. Mavzuning o'rganilishi yosh avlodni vorislik tamoyillari asosida ularda vatan taqdiriga daxldorlik his-tuyg'ularini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

2. Metodlar:

Mazkur maqolada tarixiy-statistik, qiyosiy-taqqoslash, integratsion, retrospektiv, tahlil, kuzatish, eksperiment, tahlil va tavsif kabi metodlardan foydalanilgan holda tarixiy o'lkashunoslik fanini o'rganishda Sharof Rashidov muzeyi manbalaridan foydalanishning ahamiyati ilmiy jihatdan tahlil qilingan.

3. Tadqiqot natijalari:

O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov Sharof Rashidovga nisbatan cheksiz xurmat ehtiromini bildirdi. 1992 yil 6 noyabrda Sh.Rashidov tavalludining 75 yilligi munosabati bilan yodgorlik muzeyi tashkil qilindi.

2017 yil 27 mart O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoev Sharof Rashidov tavalludining 100 yilligini keng nishonlash to'g'risidagi qarori e'lon qilindi. Ushbu qarorga e'tiboran ushbu muzey qaytadan zamon talablariga mos qilib rekonstruksiya qilindi.

Ikki marta Mehnat Qahramoni, atoqli jamoat arbobi, adib Sharof Rashidov 1917 yil 6 noyabrda Jizzaxda Sovungarlik mahallasida oddiy dehqon oilasida dunyoga keldi. Otasi Rashid bobo Halilov dastlab "Qizil karvon" (hozirda Hamroqul Nosirov) nomidagi jamoa xo'jaligida uzoq yillar mehnat qildi va bu davrda paxtachilikda ishlab, katta obro'-e'tibor qozongan paxtakor edi. Onasi Qo'ysinoy buvi uy bekasi edi. Bolalarini tarbiyasi bilan jiddiy shug'ullanar edi.

Sharof Rashidov dastlabki bilimini Narimonov nomli yetti yillik to'liqsiz o'rta maktabda tahsil oladi (hozirda Sharof Rashidov). 1933 yil o'rta maktabni yaxshi baholarga tugatgan Sharof Rashidov Jizzax pedagogika bilim yurtiga o'qishga kiradi.

U o'qish mobaynida bilim yurtini komsomol qo'mitasining birinchi kotibi vazifasini bajardi. 1936 yilda bilim yurtini tugatadi va 1937 yilgacha mana shu o'zi o'qigan Narimonov nomli maktabda o'qituvchilik bilan o'z ish faoliyatini boshlaydi.

Sh.Rashidov o'z bilimini mustahkamlash maqsadida 1938 yilda Samarqand davlat Dorilfunun institutining filologiya fakultetiga o'qishga kiradi. Sh.Rashidov talabalik yillaridayoq jurnalistikada

qalam tebrata boshlaydi. U 1941 yilda Dorulfinunni muvaffaqiyatli tugatadi. 1941 yil ikkinchi jahon urushi boshlanadi. 1941-1942 yillarda ikkinchi jahon urushiga qatnashadi.

1942 yilda Sharof Rashidov og'ir yarador bo'lib vataniga qaytib keladi. Sharof Rashidov Jizzaxdagi sobiq Lenin nomli o'rta maktabda ham o'qituvchi, ham mudir bo'lib ishlay boshladi. 1947 yil 10 noyabrda bo'lib o'tgan Markaziy Komitet buyurosi Sharof Rashidovning Toshkentda chiqadigan "Qizil O'zbekiston" hozirgi ("O'zbekiston ovozi") gazetasini mas'ul muharrirligiga tayinlaydi. U 1950-1959 yillarda O'zbekiston Oliy Kengashi Riyosatining raisi, 1959-1983 yillarda O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining kotibi bo'lib ishlaydi.

Sh.Rashidov rahbarlik qilgan 1959-1983 yillarda O'zbekiston osoyishtalik va do'stlik o'lkasiga aylandi. Ilm-fan, madaniyat va san'atda, xalq xo'jaligini yuksaltirish, ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytirish, quriq va bo'z yerlarni o'zlashtirish, yangi-yangi shahar, zavod va fabrikalar, yirik sug'orish inshootlari barpo etish kabi o'nlab sohalarda uning tashabbusi, taklif istaklari, ishtiroki bor. Sh.Rashidov qariyb chorak asr davomida respublikaga yetakchilik qildi. Hamyurtimiz Sh.Rashidov faoliyatiga nazar solar ekanmiz, avvalo, o'sha davrning o'ta murakkabligini, ziddiyatlilikini inobatga olish lozim bo'ladi. O'zbekistonning birinchi Prezidenti I.A.Karimov "Bu murakkab shaxs, bir tarafdin Milliy manfaatlarni o'ylashga, ikkinchi tarafdin Markazdan kelgan, tub manfaatlarga zid buyruqlarni hayotga tadbiq etishga majbur bo'lganini unutmaslik zarur. Uning umri sandon bilan to'qmoq orasiga qo'yilgan edi, deb aytsak mubolag'a bo'lmaydi" deb ming karra haq fikrni bildirgan edi[5].

Sh.Rashidov davrida minglab gektar qarovsiz yerlar o'zlashtirildi. O'zbekiston xaritasida yangi shaharlar; Navoiy, Zarafshon, Uchquduq, Yangier va Guliston kabi yangi shaharlar va ko'plab tumanlar barpo etildi. Yuzlab zavod va fabrikalar qurildi, bog'u – rog'lar barpo etildi.

Jizzax viloyatining tashkil topishi va Jizzax shahrining taraqqiyoti Sharof Rashidovning bevosita nomi bilan bog'liq.

1966 yilgi zilzila tufayli vayronaga aylangan Toshkent shahrini qayta qurishda, Toshkent shahri metrosini barpo etishda, ko'plab qurilish inshootlarining bunyod etilishida uning katta hissasi bor.

Muzey ko'rgazma zallarida Sh.Rashidovning ilm-fan va madaniyat arboblari, respublikamizning keng paxta maydonlarida paxtakor, mexanizator va terimchilar bilan uchrashuvlari, zavod va fabrika ishchilari va bunyodkor quruvchilar bilan samimiy uchrashuvlari aks etgan foto-lavhalar o'rin olgan.

Birgina misol Sh.Rashidov to'xtab Toshkentdan Jizzaxga kelishda Paxtakor yo'lida paxtani kultivatsiya qilayotgan yosh yigitni 30-40 metr chamasida g'o'za oralab oltiga chiqadi. G'o'zani kultivatsiya qilayotgan yigit Ro'zimurod Yalg'ash traktorini to'xtatib, oq shim – kastyum kiygan shlapali kishi u bilan ko'rishib, paxtaga qanday ishlov berayotganligini so'raydi. Traktorchi Ro'zimurod Yalg'ash o'zini tanishtirar ekan: o'zi shu paxta maydonining brigadiri ekanligini, bu yil yuqoridagilarga 1 gektar yerdan 35 sentrdan paxta hosilini yig'ib berishni va'da qilganligini shu boisdan yerni ko'ngildagidek o'zi chopiq qilayotganligini bayon qiladi. Lekin, Yalg'ash uchrashgan odami Sh.Rashidov ekanligini bilmagan. Keyinchalik, Paxtakor xo'jaligi rahbarlaridan bilib oladi. Ro'zimurodov Yalg'ash ko'p yillar oliygohni bitirib xo'jalik rahbarlari bo'lib, yorqin hayot kechiradi. Sh.Rashidovning yuksak rahbarlik qobiliyati, ulkan bilimi, boy xotirasi, iqtidori, keng ko'lamdagi madaniyati, olijanoblighi va qat'iyatligi tashkilotchilik qobiliyati, ishda va hayotda odamiylighi, zukkolighi va kamtarligi bilan kishilar qalbida o'chmas iz qoldirdi.

Sh.Rashidov bilan birga ishlashgan yig'ilishlarida ishtirok etgan, uzoq yillar o'sha paytda Oliy ta'lim ministri bo'lib ishlagan Oqil Umrzoqov shunday xotiralaydi: "Sh.Rashidov yig'ilishlarda biror bir mas'ulni ogohlantirar ekan; Siz o'z vazifangizni eplay olmayapsiz berilgan vazifalarni bajara olmayapsiz, berilgan vazifalarni olmayapsiz, ishonchimizni oqlay olmayapsiz" deb tanbeh berar ekan. O'zini bilgan rahbarlarga bunday tanbeh og'ir bo'lib botar ekan.

Ha, Sh.Rashidov o'ta zukko, odamoxun, o'zbekona andisha va hurmat bilan qo'l ostidagi xodimlariga xushmuomalalik bilan muloqatda bo'lar ekan. Shu bois ham ul zotni barcha hurmat qilar, har qanday topshiriqlarini sidqi dildan ijro etishga harakat qilar ekan.

Ko'rgazmalarda Sh.Rashidovning madaniyat sohasi xodimlari bilan o'zaro uchrashuvlari aks etgan foto lavhalarga keng o'rin berilgan. Unda yozuvchilar, olimlar, san'atkorlar va boshqa madaniyat xodimlari bilan uchrashuvlariga alohida e'tibor berilgan. Sh.Rashidovning bu sohada ham hech narsa e'tiboridan chetda qolmagan. Andijonda yosh talantlar o'rtasidagi ko'rik tanlovda ishtirok etayotgan 13 yoshli Sanobar Rahmonovanning ijrochilik san'ati Sh.Rashidovning e'tiboriga tushadi. Shunda Sh.Rashidov soha rahbarlariga shu qizni qo'shiqchilik san'atini ro'yobga chiqarishni tayinlaydi. U kishi tufayli S.Rahmonovanning jo'shqin qo'shiqlari elimizni qalbidan abadiy joy oladi.

Muзей eksponatlarida Sh.Rashidovning sobiq ittifoq delegatsiyasi bilan jahonning 33 ta mamlakatlarida xorijiy safarlarida bo'lganligini aks ettiruvchi foto-lavhalar bor. Hususan, Kuba rahbari F.Kastro, Vetnam davlati rahbari Xoshimin, Eron shohi Rizo Pahlaviy, Afg'oniston rahbari Muhammad Zokirshoh, Hindiston rahbarlari va Yevropa mamlakatlari rahbarlari bilan samimiy uchrashuvlar o'tkazgan.

Sh.Rashidov 1963 yilda sobiq SSSR delegatsiyasiga rahbar bo'lib Kubaga boradi. Kuba rahbari Fedeev Kastro bilan samimiy uchrashuvlar o'tkazadi. Sh.Rashidov F.Kastroda juda yaxshi taassurot qoldiradi. Shu bois u Sh.Rashidovga albatta yurttingizga boraman deb va'da beradi. Shu yili F.Kastro o'z delegatsiyasi bilan SSSRga tashrif buyuradi. Tashrif chog'ida o'z so'zi ustidan chiqib, O'zbekistonga keladi. Uni o'sha paytdagi O'zbekiston SSSR Oliy Soveti Prezidentining raisi Yo.Nasridinova hamkorligida Jizzax rayonining Qahramon mahallasining Toshkent yo'nalishi yo'li ustidagi paxta shiyponiga to'xtab, bir piyola choy ustida paxta brigadiri O'rol Oqboev bilan paxta yetishtirishning sirlari haqida suhbatlashadi. Shundan beri ular suhbatlashgan joy el ichida F.Kastro deb atalib kelinmoqda.

Sh.Rashidov 1966 yili Hindiston va Pokiston o'rtasida uzoq yillar davom etgan munozarali urushni to'xtatish uchun Toshkentda ikki davlat rahbarlarini tinchlik uchun muzokara o'tkazilishiga yordam beradi. Sh.Rashidovning tashabbusi bilan ikki mamlakat rahbarlari Hindiston rahbari La'l Bahodir Shastri va Pokiston rahbari Muhammad Ayubxon o'rtasida tinchlik deklaratsiyasini imzolash sharafiga muvaffaq bo'lishadi.

Shuningdek, muзей bo'limlarida Sh.Rashidovning Respublikamizda rahbarlik ishlari bilan bir qatorda ijodiy ishlari ham o'rin olgan. Adibning "G'oliblar" (1953) qissasi ishlanib, 1972 roman shaklida nashr etiladi. So'ngra "Bo'rondan kuchli" (1958), "Qudratli to'lqin" (1964) romanlari yaratiladi. Ularda o'zbek xalqining urushdan keyingi tiklanish yillaridagi mehnat jasorati badiiy ifodasini topgan.

Sen bilan ochdim ko'zimni, sen bilan bo'ldim aziz,
Sen bilan kuldi diyorim, sen bilan turmush aziz.
Sen bilan olam yorug', sen berding menga nonu tuz,
Ham g'ururim ham sururim, ham huzurim, mehnatim.

Ijodkorning kino qissalarida "Kashmir qo'shig'i" (1957), "Koinot" (1960), "Dil amri" kabi lirik qissalarida yoshlik, bahor, go'zallik, hayot nashidasi madhiga bag'ishlangan ijodiy ishlari o'rin olgan.

Sharof Rashidov badiiy ijodiga 30-40 yillarning oxirlarida kirib keldi. Samarqand davlat Dorulfununining talabasi bo'lgan davrida she'riyat va jurnalistikada qalam tebrata boshladi.

1938 yil sobiq ittifoq "Lenin yo'li" ro'znomasining 8 mart sonida "San'ating kulsin" she'ri bosildi. Shundan keyin uning she'rlari matbuot yuzini ko'ra boshladi. Sharof Rashidov she'rlarini jamlab 1945 yil "Qahrim" nomi ostida kitobxonlarga taqdim etdi. Osiyo yozuvchilari bilan Moskvada dekada seminari bo'lib o'tadi. Unda ko'pgina chet el yozuvchi va shoirlari qatnashishadi. Sharof Rashidov ko'plab yozuvchilar bilan ham uchrashuvlar olib borardi va ularni ishlaridan bahramand bo'lgan.

Sh.Rashidov rahbarligida siyosiy uchrashuvlardan tashqari adabiyot namoyondalari bilan ham tez-tez muloqotda bo'lib turar edi. Sharof Rashidov hind xalqi bilan yaqin aloqada bo'lib kelgan. 1965 yilda Hindiston safarida bo'lgan. Safar chog'i Hindiston xalqining hayoti, boy madaniyati, san'ati va adabiyoti bilan tanishdi. "Kashmir qo'shig'i" qissasida bahodir Bamburning go'zal Nargizga bo'lgan muhabbati kuylanadi. Erk uchun kurashuvchilar bu yo'lda xalqni birlashtira olsalar ular g'alaba qozonadilar.

Kashmir xalqining qadimiy sevgi dostoni asosida “Kashmir qo‘shig‘i” asari qariyb 56 ta tilga tarjima qilingan. Bu asar “Kashmir afsonasi” nomi bilan Moskva teatrida va Toshkentdagi Navoiy nomli opera va balet teatrida sahnalashtirildi.

Sharof Rashidovning “Kashmir qo‘shig‘i” asari Jizzax qo‘g‘irchoq teatrida ham sahnalashtirilgan.

Misol uchun, “Qudratli to‘lqin” asarida urush yillaridagi voqealar aks ettirilgan. Unda davrimizning ijodiy mazmuni ochilgan. Respublikaning yosh ishchilar sinfi umumxalq intilishlarining qudratini o‘zida ifodalaydi. Yozuvchi ularni alohida mehr bilan tasvirlagan. Sh.Rashidov “Qudratli to‘lqin” asarida chinakam inson xarakteri qiyin sharoitlar ichida, ularni yengib o‘tish jarayonlarida, yomonlikka qarshi ayovsiz kurashlarda shakllanishini ko‘rsatadi, ma’naviy sog‘lomlikni ulug‘laydi, soxta odamlar bilan kurash yo‘lini yoqalaydi.

Sharof Rashidov ijodining oxirgi mahsuli sifatida 1978 yilda nashrdan chiqartirilgan “Dil amri” kitobini ko‘rsatish mumkin. “Dil amri” yangi qissasi o‘zbek prozasi uchun tomomila yangi material asosida yozilgan. Asar tarixi Novgorod oblastining kichkinagina qishlog‘i Beryozovkada kechadi. Muallif bizni og‘ir urush davriga olib kiradi, fashizmga qarshi kurash yillarida o‘zi jang qilgan yerlar bilan tanishtiradi.

Muzeyda Sh.Rashidov chet el mamlakatlaridan sovg‘a qilingan har-xil suvinirlar joy olgan. Sh.Rashidov mamlakat ichkarilariga tashrifi chig‘ida foydalangan vagon bor. Vagonda Sh.Rashidov foydalangan jihozlar va kiyim-kechaklari mavjud.

4. Xulosalar:

Shunday qilib, muzeyga tashrib buyurgan kishilar Sh.Rashidovning xalqimiz oldidagi shijoatli mehnati, zukko rahbarlik qobiliyati, serunum ijodiy mehnati bilan yaqindan tanishadi.

Darhaqiqat, o‘zi aytganidek ham g‘ururi, ham shuuri bilan respublikamizni iqtisodiyotini, ta’lim-tarbiyasini va madaniyatini rivojlantirishga katta hissa qo‘shdi. Uning jo‘shqin mehnat faoliyati xilqimizga, ayniqsa yoshlarga ibrat namunasini ko‘rsatib berdi. Shuning uchun Sh.Rashidovning siymosi xalqimiz qalbida abadiy yashashga dahldor bo‘lib qoldi.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qoshma majlisidagi nutq. -T.: O‘zbekiston, 2016
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom etlirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. T. 1. -T.: Ozbekistoa 2017.
3. Mirziyoev Sh. Buyuk kelajagimizni mart va olijanob xalqimiz bilan birga kurashamiz. T., 2017, 345-bet.
4. Mirziyoev Sh. Xalqimiz roziligi bizning faoliyatimizga berilgan bahodir. – T., 2018, 360-bet.
5. Karimov I.A. Xalqimizning otashqalb farzandlari. – T.: “O‘zbekiston”, 1992. 15-bet.
6. Haydarov H. Jizzax tarixi. T., 2009, 189-bet.
7. Sh.R.Rashidov muzeyi manbalari. 2023 yil.
8. Miraliev S., O‘zbek adiblari. T., 2000, 83-bet.
9. Kuniazova D.T. O‘zbekistonda muzey ishi tarixi. - T., 2010.
10. Bekmurodov M., Rashidova M. Muzeysunoslik. -T.: Voris Ali, 2006,
11. Илалов И. Музееведение. – Т.: Musiqa, 2006. (Ilalov I. Museum studies. – Т.: Musiqa, 2006).
12. Садыкова Н. Музейное дело в Узбекистане. – Т.: Фан, 1975. (Sadykova N. Museum business in Uzbekistan. – Т.: Fan, 1975).
13. Фузаплова Г., Хасанова М. Музееведение. – Т.: Fan va texnologiyalar bosmaxonasi, 2008. (Fuzaplova G., Khasanova M. Museology. - Т.: Fan va texnologiyalar bosmaxonasi, 2008.)

ЎТМИШГА НАЗАР

1 МАХСУС СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР 1

LOOK TO THE PAST
SPECIAL ISSUE 1

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000